

*Bekobod shahr*  
*3-umumta'lim maktab*  
*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*  
*Hamzaqulova Azizaning*  
*2-"A" sinfda o'tkazgan*  
*"Onajon, sizga ta'zim"*  
*nomli tadbiri*  
**ISHLANMASI**

**Maqsad:** o'quvchilarning onaga bo'lgan mehr-muhabbati, e'tiborini oshirish, ulug'lashga, qadriga yetishga o'rgatish.

**Tadbirning borishi**

**1 - boshlovchi:**

Aziz ustozlar, mehribon ota-onalar, qadrli do'stlar! Bugungi «Jannat — oyog'i ostida» nomlangan musiqali badiiy kechamizni ochiq deb e'lon qilamiz!

**2- boshlovchi:**

*Assalom, mo'tabar, aziz onalar,  
Assalom — olamning oliy kalomi!  
Ta'zim aylagayman, sizga, ey, ustoz,  
Bu mening samimiy ko'nglim salomi!*

*(Doira, nog'ora sadolari ostida beshik olib kiriladi. Ona rolidagi o'quvchi «bola» ni beshikka belab, alla aytadi).*

Alla aytay, jonim bolam,  
Quloq solgin, alla...  
Shirin allam tinglab asta  
Orom olgin, alla...  
Kelajakning mevasisan,  
Alla aytay, alla-yo...  
Ko'zim nuri, dilbandimsan,  
Suyanchig'im alla.  
Allayo-alla, allayo-alla...

*(Ona alla aytib, beshikka boshini suyaganicha uxlab qoladi. O'quvchilar onaga qarab Sobira Xalitovanning «Onajon» she'rini o'qishadi).*

*Quyosh olar nurni  
Onalarning qalbidan.  
Tog'lar olgan bardoshni  
Onalarning sabridan.  
Uyimiz nurga to'lar  
Onajonim bor bo'lsa.  
Ko'zlarim yosh ko'rmaydi*

*Onam baxtiyor bo'lsa.  
Ona mehri beqiyos,  
Daryolarga tenglashar.  
Ona hurmati uchun  
Osmon yerga engashar.*

*(«Onajon» qo'shig'i).*

*(Musiqqa yangrab, Bahoroy kirib keladi).*

**Bahoroy:** — Salom, mening sevimli o'g'il-qizlarim! Men — zumrad Bahorman. Meni sog'ingandirsiz-a? Gullar, ariqlarda oqar suvlarimni, qizlarning gullar bargidan qirq kokil taqishini, bir-biridan go'zal, sermazmun bayramlarimni-chi? Ayniqsa, 8- mart — Xalqaro xotin-qizlar bayramim juda ajoyib va go'zal!

Men ham onaday mo'tabar inson oldida bosh egaman. Onalarimiz, ayollarimiz doim sog'-omon bo'lsinlar!

*(Qizlar raqsi «Bahor vals»).*

**1 - o'quvchi:** — Oilaning barcha ezguliklari, xizmatlari, yaxshi kunlari, muammolari ana shu ma'suma va munis ayol atrofida aylanaveradi.

**2-o'quvchi:** — Oqila va dono, fidoyi ayollarimiz hamisha

**Hamma:** — Omon bo'lsinlar!

**3-o'quvchi:** — Ayol oila o'chog'ini yoqadi, butun imkonini ishga solib, o'z bolasini bag'rida bo'ron va dovullardan sog'- salomat olib o'tadi, kelajakka poydevor qo'yadi.

**4-o'quvchi:** — Bunday bardosh va matonat uchun ularga

**Hamma:** — Ta'zim qilamiz!

**5-o'quvchi:** — Har qanday jamiyatning farovonligi va ma'naviy sog'lomligi mezoni, oila ahilligi, oila mustahkamligidir u.

**6-o'quvchi:** — Ayol oilaning asosi, xonadonlarimizni charog'on etuvchi chiroqdir. Har bir oilada bunday yog'du doimo...

**Hamma:** — Porlab tursin!

*(«Mahallada duv-duv gap» musiqasi yangraydi. Sahnaga qariyalar kirib kelishadi. Sahna ko'rinishi).*

**1 - o'quvchi:** — Farzandlarning o'ng yuzi otasiga, chap yuzi ona ruxsoriga o'xshaydi. «Nega chap tarafi onasiga o'xshaydi?» — deb ajablanib so'rashganda g'oyibdan shunday nido kelganmish

*(DVD yoki kompyuter orqali eshittiriladi):*



«Ey odamzod, o'ng qo'lingni chap ko'kraging ustiga qo'y. Bir lahza tin ol, diqqat et. Sezyapsanmi, kafting ostida butun bir zaminning yukini bo'yniga olib onangday mushfiq, onangday mehribon, u kabi zahmatkash yurak bir maromda urib turibdi. U mehnat qilyapti, volidayi muhtaramangday u hamisha uyg'oq. Shu bois farzandlarning chap yuzi — yurakka tutash tarafi ona ruxsoriga o'xshab ketgan bo'lsa ne ajab».

**2-o'quvchi:** — Onalik katta baxt. Afsuski, hayotda shunday onalar ham borki, o'z bolalari, jigar-go'shalarini tashlab ketishadi.

**3-o'quvchi:** - - Yer yuzida qalbi pora minglab farzandlar mehribonlik uylarida tarbiyalanmoqda. Murg'ak norasidalarining aybi nima axir?

**4-o'quvchi:** — Ularga o'z mehrini beruvchi shirinso'z tarbiyachilar, bag'rikeng- xalqimiz, ona-Vatanimiz bor.

**5-o'quvchi:** — Lekin hech bir zot ona mehrini berishga qodir emasdir.

*(Sahna ko'rinishi)*

**1-o'quvchi:** — Onalarning farzandda haqlari juda ko'pdir. Garchi uni boshingda ko'tarib, hajga olib borib kelsang ham, bir kechalik uyqusini buzib, senga bergan oq suti, aytgan allasining haqini uzolmaysan...

**2-o'quvchi:** — Onalarga biz farzandlaridan ko'p narsa kerak emas. Sog'-omon, tinch, baxtli-saodatli bo'lsak, shuning o'zi kifoya. Farzandi kamoli — ona iqboli.

**3-o'quvchi:** — Ona borki, hayot bardavom.

**4-o'quvchi:** — Ona borki, oila charog'on.

**5-o'quvchi:** — Ona borki, olam bor.


**6-o'quvchi:** — Onalarimiz bizni bir parcha etdan katta qilib, qatorga qo'shadilar, oq yuvib, oq taraydilar, doimo boshimiz uzra parvona ular.

**7-o'quvchi:** — Oyog'imizga kirgan tikanni kipriklari bilan olishga tayyordirlar.

**8-o'quvchi:** — Buning sababi nimada, ne uchun onalar farzand qoshida bu qadar parvona?

**9-o'quvchi:** — Kerak bo'lsa, farzandi uchun jonini fido qilishga ham tayyor ekanliklarining boisi nimada? Buning javobi bitta.

**Hamma:** — Bu — onalik mehridir.

- 
- Sendan yuksak nima bor, yulduz?  
—Onalar mehri.  
—Sendan keskir nima bor, olmos?  
—Onalar qahri.  
— Qaydan olding otashni, quyosh?  
—Ona qalbidan.  
—Po'lat, qaydan senda zo'r bardosh?  
—Ona sabridan.  
—Senmi, ko'klam, hayotbaxsh fasl?  
— Yo'q, Ona izi.  
— Senmi, totli, shifobaxsh asal?  
— Yo'q, Ona so'zi.  
— Dengiz, nadir kenglikda tanho?  
— Ona og'ushi.  
— Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?  
— Ona nigohi.  
— Baxsh beruvchi senmisan, hayot?  
— Yo'q-yo'q, Onalar.

*(«Kelinlar qo'zg'oloni» spektaklidan sahna ko'rinishi).*

Onalar bolalari bilan chiqib, she'r aytishadi. Bunda qobiliyatli o'quvchilar onalar rolini ijro etishadi.

**1-ona:**

*O'g'lim toleingda ikkinchi onang,  
Boshingda parvona mualliming bor.  
U bilan yorug'dir qorong'u xonang,  
U to'shar umringning yo'llariga zar.*

**2-ona:**

*Men senga shunchaki ko'zlar berganman,  
Muallim o'rgatar ko'ra olmoqni.  
Dilbandim, men senga ona bo'lganman,  
Senga u o'rgatar ona demoqni.*

**3-ona:**

*Men senga tilingni berganligim rost,  
Dono so'zlamqni u o'rgatadi.*

*Men senga qo'llaring berganligim rost,  
Qalam ushlamoqni u o'rgatadi.*

**4-ona:**

*Men senga sut berdim, u esa — ziyo,  
Uningsiz yo'llaring bo'lmas oydin, oq.  
Seni sevmog'imni biladi dunyo,  
Ammo u sevadi mendan ortiqroq.*

**5-ona:**

*Go'daklik chog'ingda bo'lganman bedor,  
Ham senga baxshida etganman hayot.  
U esa yashashni o'rgatar ming bor,  
Seni deb bezovta yashar umrbod.*

**1-o'quvchi:** -Aziz, mo'tabar onajonlar, sevimli buvijonlarimiz, hurmatli mehribon o'qituv-chilarimiz, munis opajonlar-u jajji singiljonlar! Sizlarni 8- mart — Xotin-qizlar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etamiz!

**2- o'quvchi:** - Sizlarga uzoq umr, sihat-salomatlik tilaymiz!

**3-o'quvchi:** — Doim shunday go'zal va xushchaqchaq bo'lib yuring!

**4- o'quvchi:** — Labingizdan kulgu, chehrangizdan tabassum hech arimasin!

**5- o'quvchi:** — Biz, bolalaringiz baxtiga doim...

**Hamma:** -Sog'-omon bo'linglar!

Ona huzuriga shoshilib intiq,  
Poylarin tavof etmoqlik kerak.  
Onaday mehribon, onaday mushfiq,  
Toki ko'ksimizda urarkan yurak.  
Munis onalarning aksi-tal'ati,  
Ko'rinar farzandning bo'yi-bastida.  
Ona bu — dunyoning noyob xilqati,

**Hamma:** Jannat — onalarning oyog'i ostida.  
(«Qiz bolaning ibolari chiroyli» raqsi).

O'qituvchi o'zining dil so'zlarini izhor etadi.  
(Yakunlovchi ashulla “Onalar mo'tabar”).

